

**O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining huquqbuzarliklarni oldini olish va ularning profilaktikasi bo'yicha 2024 yilda amalga oshirilgan ishlar holati to'g'risidagi  
AXBOROTI**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev boshchiligida mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va aholining muammolarini hal etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada, 2024 yil davomida ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida bir qator quyidagi kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

***I. "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosi***

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 fevraldagi PF-37-son Farmoni bilan tasdiqlangan **"O'zbekiston – 2030"** strategiyasini **"Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"**da amalga oshirishga oid Davlat dasturining **36 ta** bandida Ichki ishlar vazirligi kiritilgan bo'lib, Vazirlik ularning **11 tasida** asosiy ijrochi sifatida belgilangan.

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 fevraldagi PF-37-son Farmon qismida 26-bandining "a" va "b" kichik bandlari bo'yicha IIV hamijrochi hamda 28-bandining ikkinchi va uchinchi xatboshilarida belgilangan topshiriqlar bo'yicha asosiy ijrochi sifatida belgilangan.*

*Farmon bilan tasdiqlangan Davlat dasturi bo'yicha IIV 9 ta topshiriqlar bo'yicha asosiy ijrochi, 23 ta topshiriqlar bo'yicha hamijrochi sifatida belgilangan.*

2024 yilda Farmon va Davlat dasturiga asosan IIV tomonidan **7 ta** normativ huquqiy hujjat loyihalari ishlab chiqilib, tegishli instantsiyalarga kiritilgan.

*Ulardan 1 ta Qonun, 3 ta Prezident hujjatlari, 2 ta Vazirlar Mahkamasining qarorlari, 1 ta Qo'shma qaror (memorandum).*

***II. Yirik ommaviy tadbirlarda jamoat tartibini saqlash va fuqarolarga davlat xizmatini ko'rsatish borasidagi tadbirlar***

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari, Xalq deputatlari tuman va shahar kengashlariga saylovi davomida **11 mingdan** ziyod ob'ektlarda **15 mlndan ortiq** fuqarolarning xavfsizligi ta'minlandi.

Mazkur tadbirlarga **29 807 nafar** huquq-tartibot idoralari xodimlari jalb etildi. Ularga xizmatda foydalanish uchun **13 009 ta** aloqa, **2 843 ta** avtotransport vositalari, **14 069 ta** metallodetektor hamda **272 bosh** xizmat itlari biriktirildi.

Barcha ommaviy tadbirlarni o'tkazish davomida tezkor vaziyatni nazorat qilish, jamoat tartibini saqlash va xizmatga jalb etilgan kuch-vositalarni markazlashgan tartibda boshqarish uchun **Vazirlik markaziy apparatida tezkor shtab**, joylarda esa **ishchi guruhlar** faoliyati yo'lga qo'yildi.

Tadbirlar davomida jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadida **"Xavfsiz hudud"**, **"Chegara tozalash"**, **"Qurol"** va **pirotexnikaning** noqonuniy

aylanmasiga qarshi kurashish bo'yicha manzilli tezkor-profilaktik tadbirlari o'tkazildi.

### ***III. Mahallalarda xavfsiz muhit yaratish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar***

**3.1.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30 noyabrdagi "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 801-son qarori asosida "mahalla etiligi" tomonidan huquqbuzarlik sodir etishi yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar bilan ishlash bo'yicha "**ijtimoiy profilaktika**" tizimi yo'lga qo'yildi.

Mazkur tizim asosida xonadonlar, oilalar va profilaktik hisobdagi shaxslar o'rganilib, huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan **587 606 nafar** shaxslar aniqlanib, ular bo'yicha **xulosalar** tuzildi.

*Mahalla raislariga 168 606 ta, hokim yordamchilariga 145 958 ta, xotin-qizlar faollariga 172 804 ta va yoshlar etakchilariga 100 237 ta xulosalar berildi.*

Tuzilgan xulosalar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida **410 413 nafar** shaxslarning muammolari ijobiy hal etildi.

Xususan:

– **mahalla raislari** tomonidan **33 361 nafar** shaxsning nizolariga barham berildi, **9 759 nafar** shaxslar ishga joylashtirildi;

– **hokim yordamchilari** tomonidan **7 264 nafar** shaxsga subsidiya olishda yordam ko'rsatildi, **4 987 nafari** hunarmandchilikka jalb qilindi, **6 510 nafari** kasbga o'qitildi, **17 297 nafari** tadbirkorlikka jalb qilindi;

– **xotin-qizlar faollari** tomonidan **19 476 nafar** xotin-qizga tibbiy, **26 246 nafariga** psixologik, **18 528 nafariga** moddiy yordam ko'rsatildi;

– **yoshlar etakchilari** tomonidan **3 816 nafar** yoshlarning kontrakt pullari va **2 723 nafariga** harbiy xizmat to'lovlari to'lab berildi, **2 738 nafariga** haydovchilik guvohnomasi, **4 003 nafariga** bir martalik moddiy yordam va **6 636 nafariga** dehqonchilik uchun er olishda amaliy yordam ko'rsatildi.

**3.2.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan berilgan topshiriqlar asosida **yoshlar** o'rtasida profilaktik tadbirlarni samarali tashkil etish, ularning muammolarini o'rganish hamda bartaraf etish, ularning jamiyatda munosib o'rin egallashiga ko'maklashish maqsadida belgilangan **1 mln 17 ming** nafar yoshlar **ichki ishlar organlariga** birlashtirildi;

*Ichki ishlar vazirligi tashabbusi bilan qo'shimcha 67 ming 358 nafar yoshlar ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari o'talig'iga olindi;*

Besh va undan ortiq qo'pol ravishda yo'l harakati bilan bog'liq huquqbuzarlik sodir etgan **58 075** nafar yoshlar - yo'l harakati xavfsizligi, jazo o'tayotgan **9 283** nafar mahkumlar - **jazoni ijro etish** bo'linmalariga **biriktirildi**.

– amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirib borish maqsadida, respublika hamda hududiy ishchi guruhlar faoliyati yo'lga qo'yilib, belgilangan vazifalar ijrosini o'z vaqtida va sifatli bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatildi.

*Ishchi guruhlariga Ichki ishlar vazirligi va 14 ta hududiy ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi, probatsiya, tergov, jinoyat qidiruv, migratsiya, axborot va boshqa xizmatlar jalb etgan.*

### 3.3. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan tadbirlar:

– hududlarda **4 mln 492 ming 423** nafar yoshlarni qamrab olgan holda ularni **“Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash”**ga qaratilgan **137 535 ta** tadbir tashkil etildi; *42 415 ta ma’naviy-ma’rifiy, 24 961 ta sport, 12 287 ta vatanparvarlik, 6 401 ta harbiy yo’nalishda, 15 125 ta madaniy va 36 706 ta boshqa yo’nalishdagi tadbirlar.*

– mahallalarda **808 ta** kichik kutubxona, kitob va ma’naviyat burchaklari yaratildi va **2 ta Vatanparvarlik guzari** tashkil etildi (*Andijon va Xorazm*);

– jazo o’tayotgan **9 283** nafar mahkumlar (yoshlar) bilan jazoni o’tash joylarida ularni **Vatanparvarlik ruhida** tarbiyalashga qaratilgan **11 385 ta** tadbir tashkil etildi;

*1 972 ta ma’naviy-ma’rifiy, 3 231 ta sport, 242 ta vatanparvarlik, 1 402 ta madaniy va 4 898 ta boshqa yo’nalishdagi tadbirlar.*

– Yo’l harakati qoidalarini qo’pol ravishda buzgan **58 115** nafar yosh haydovchilar bilan **11 581 ta** tadbirlar tashkil etildi;

*2 758 ta mast holda boshqargan haydovchilar bilan profilaktik tadbirlar, 1 460 ta YTX oldini olish bo’yicha mahallalarda muhokamalar, 636 ta ichuvchi va giyohvandlar, 902 ta IIO xodimlarining qonuniy talabiga bo’ysunmagan bilan profilaktik, 1 678 ta tezlikni oshirish bo’yicha yuzaga kelayotgan holatlar yuzasidan tadbirlar tashkil etilib, 409 ta sayyor sudlar o’tkazildi.*

– **3 335 307 nafar** yoshlar ishtirokida **huquqiy savodxonlikni** va qonunga itoatkorlik hissini oshirishga qaratilgan **109 847 ta** tadbir o’tkazildi;

*34 323 ta huquqiy-targ’ibot kunlari doirasida, 10 993 ta tanlov va musobaqalar, 3 892 ta sayyor sud muhokamalari, 13 637 ta ko’rgazmali targ’ibot tadbirlari, 18 320 ta maxsus-huquqiy profilaktik va 28 682 ta boshqa yo’nalishdagi tadbirlar.*

### 3.4. Yoshlarni ijtimoiy va maishiy muammolarini hal etishga qaratilgan tadbirlar:

– **“xonadonbay”** o’tkazilgan tadbirlar jarayonida **anketa-so’rovnomasi** orqali **942 152** nafar yoshlar o’rganilib, **88 466** nafari bilan esa **onlayn suhbatlar** o’tkazildi (*migratsiyadagi yoshlar*);

– tadbirlar jarayonida **xorijda migratsiyada** bo’lgan jami **16 068** nafar, shulardan, Rossiya Federatsiyasidan **7 512** nafar yoshlar yashash joylariga qaytarish choralar ko’rildi;

– o’tkazilgan yakka tartibdagi suhbatlarda **111 893** nafar yoshlarning turli **ijtimoiy** va **maishiy** muammolari aniqlanib, **“mahalla etiligi”** hamda boshqa mutasaddi idora va tashkilotlar hamkorligida **71 482** nafarining muammosi hal etildi;

– **2 398 ta** mehnat **yarmarkalari** tashkil etilib, **14 213** nafar yoshning **bandligi** ta’minlandi, **6 659 nafari** kasb-hunarga o’qitishga jalb etildi, **3 466** nafariga moddiy yordam ko’rsatildi,

– **2 308 nafariga** subsidiya va **4 865 nafariga kreditlar** ajratildi, shuningdek, **39 971** nafarining boshqa **muammolari hal qilindi.**

Shuningdek, **mahallalarda voyaga etmaganlar** orasida jinoyatchilikning barvaqt oldini olish, ularning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish choralari ko’rildi:

– **voyaga etmaganlar** orasida nazoratsizlikning oldini olish maqsadida jamoat joylarida qarovsiz qolgan **104 139 nafar** bola aniqlanib, ularning **1 715 nafari** ijtimoiy-huquqiy yordam ko’rsatish markazlariga, **34 nafari** o’quv-tarbiya muassasalariga joylashtirildi, ota-ona qaramog’isiz qolgan **789 nafariga**

vasiy va homiylar tayinlandi;

– farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalarning **778 nafari** ishga joylashtirildi, **6 828 nafariga** fakultativ to'garaklarga jalb etildi;

– **talabalar** orasida jinoyatchilikning barvaqt oldini olish maqsadida, **212 ta** oliy ta'lim muassasasida **179 nafardan** ziyod profilaktika inspektorining (*shundan 30 nafari xotin-qizlar masalalari bo'yicha*) faoliyati yo'lga qo'yildi;

– oliygohlarda **180 ga** yaqin “Qalqon” guruhlarini tashkil etilib, ularga **2 456 nafar** talaba jamoatchilik asosida jalb etildi;

– voyaga etmaganlarning **5 920 nafari** o'qishga qaytarildi, **8 136 nafari** sport, **1 416 nafari** kichik biznes shoxobchalariga jalb etildi va **2 719 nafari** “Barkamol avlod” markazlariga joylashtirildi;

– **25 331 nafar** voyaga etmaganlar mahallada muhokama qilingan, **267** nafari majburiy davolanishga yuborilgan hamda **14 648** nafari profilaktik hisobdan chiqarildi.

**3.5. Xotin-qizlar** o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish hamda oilalarda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi:

– ijtimoiy ko'makka muhtoj ayollarning **7 126 nafari** ishga joylashtirildi, **1 481 nafariga** tibbiy yordam ko'rsatilib, **7 485 nafariga** moddiy va ijtimoiy yordam ko'rsatildi;

– tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan **54 757 nafar** xotin-qizlarga “himoya orderi” berilishi natijasida **22 527 ta** oilalar yarashdirilib, **28 193 ta** nizolar bartaraf etildi;

– og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan oilaviy muammolar va turmushida zo'ravonlik ishlatilishiga duch kelgan **625 nafar** xotin-qizlar Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlariga joylashtirildi;

– ijtimoiy muammolari hal etilishi natijasida sog'lom turmush tarziga o'tgan **32 559 nafar**, shu jumladan **658 nafar** voyaga etmagan qizlar, **5 175 nafar** yosh xotin-qizlar, **542 nafar** ilgari sudlangan ayollar ichki ishlar organlari hisobidan chiqarildi;

– og'ir vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga tezkorlik bilan zaruriy yordam ko'rsatish uchun tizimda qisqa “**1259**” va “**1286**” raqamli “**Ishonch markazi**” tashkil etilib, markazga qo'ng'iroq qilgan **6 027 nafar** ayollarga **psixologik** va **huquqiy yordam** ko'rsatildi.

#### ***IV. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va kriminogen vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari***

2024 yilning 12 oyi mobaynida respublika hududida jinoyatchilikni jilovlash, sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish va kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlash borasida **kompleks chora-tadbirlar** amalga oshirildi.

##### **4.1. Tezkor-qidiruv faoliyatini jadallashtirish yo'nalishida:**

2024 yilda xodimlarning tashabbusi bilan **27 953 ta** jinoyat aniqlangan bo'lib, mazkur amaliyot **23,4 foizga** (2023 yil 12 oyida – 22 661 ta) yaxshilangan. Xususan:

– **558 ta** “hujra”, **229 ta** noqonuniy nomozxona, **157 ta** noqonuniy diniy jamoat hamda **973 ta** internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yot g'oyalarni tarqatish

holatlariga barham berilgan va noqonuniy muomaladan **2 tn 138 kg**dan ziyod giyohvandlik vositalari va psixotrop dori-vositalari olingan;

– qoidaga zid ravishda saqlangan **6 851 dona** o'qotar ov quroli, **486** dona pnevmatik qurol va jamoat joylarida olib yurilgan **1 348** dona sovuq qurol olib qo'yilgan.

Shuningdek, respublikada sodir etilgan jami jinoyatlarning **67 936 tasi** yoki **92,4 foizi** fosh etildi, tergov organlaridan yashiringan **8 736 nafar** shaxslar ushlandi, **561 nafar** bedarak yo'qolganlar topilib, **6 ta** shaxsi noma'lum murdalarning shaxsi aniqlandi;

– **3 880 nafar** shaxslar tomonidan sodir etilgan **3 293 ta** korrupsiya va iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar aniqlanib, ular oqibatida etkazilgan **239 mlrd 584 mln so'm** miqdoridagi zarar undirilishi ta'minlandi;

– **117 ta** chegara qoidalarini buzish hamda **219 nafar** odam savdosi jinoyatini sodir etgan shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko'rilishi ta'minlandi.

**4.2. Kriminogen vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari va jinoyatchilik holati:**

2024 yilda respublikada **har 100** ming aholiga **199 ta** jinoyat to'g'ri kelib, Toshkent shahri (*481 ta*), Toshkent (*296 ta*), Farg'ona (*243 ta*), Sirdaryo (*224 ta*) va Navoiy (*214 ta*) viloyatlarida salmog'i yuqoriligi qayd etilgan.

*100 ming aholiga Rossiyada – 1 307, Armanistonda – 1 237, Belarusda – 798, Moldaviyada – 692, Qozog'istonda – 541 ta jinoyat to'g'ri keladi.*

Jami mahallalarning **30,6 foizida** (*2 894 ta*) jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmagan, o'z navbatida jinoyatlar qayd etilgan mahallalarning **1 350 tasi** (*14,3 %*) “qizil” toifaga kirgan.

Respublikada jami **45 545 ta** oldini olish lozim bo'lgan jinoyatlar sodir etilgan bo'lib, jinoyatlarning asosiy salmog'i yoki **41,3 foizini** o'g'rilik (*10 607 ta*) va firibgarlik (*8 216 ta*) tashkil etgan.

O'g'riliklarning **20 foizi** xonadonlarda, **9 foizi** savdo shohobchalarida, **7,8 foizi** avtotransport vositalaridan sodir etilgan, **18,8 foizini** telefon, **7,3 foizini** velosiped, **8,9 foizini** hayvon o'g'riliklari **4,6 foizini** kissavurlik tashkil etadi.

Firibgarliklarning **8,1 foizi** o'qishga va ishga kiritish, **11,6 foizi** avtomashina, **8,8 foizi** uy-joy, **5,9 foizi** kredit, **4,8 foizi** chorva mol olib berish, **3,8 foizi** chet elga ishga yuborish bilan bog'liq holda sodir etilgan.

O'g'rilik jinoyatlarini asosan **30 yoshgacha** muayyan kasbga ega bo'lmagan **3 651** nafar (*34,4 %*) shaxslar sodir etgan hamda firibgarlik jinoyatiga esa asosan **2 652 nafar** (*32,2 %*) yoshlar jinoyatga qo'l urgan.

Oldi olinishi lozim bo'lgan jinoyatlarning **2 304 tasini** o'zaro nizolar va kelishmovchilik sababli sodir etilgan qotillik va tan jarohati etkazishlar tashkil etgan.

Mazkur jinoyatlarning **1 690 tasi** oilalarda, **104 tasi** jamoat joylarida, **476 tasi** ijtimoiy ob'ektlar hududida sodir etilgan.

Band bo'lmaslik yoki daromad topmaslik oqibatida **72,5 foiz** (*7 302 ta*) jinoyatlar sodir etilib, asosan **Toshkent shahri** (*3 027 ta*), **Toshkent** (*1 180 ta*), **Surxondaryo** (*611 ta*) va **Andijon** (*480 ta*) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**4.3. Kiberxavfsizlik yo'nalishida 58 800 ta** jinoyatlar sodir etilgan bo'lib, ularning **97,7 foizi** (57 480 ta) fuqarolarning **bank plastik kartalaridagi** pullarni qo'lga kiritish bilan bog'liqdir.

**Elektron to'lov tizimlari** orqali sodir etilgan jinoyatlarning **28,3 foizi** (16 269 tasi) **soxta havolalar** yuborish orqali tasdiqlovchi kodni qo'lga kiritib, karta boshqaruvini egallash yo'li bilan, **8,7 foizi** (5 123 tasi) **onlayn savdo platformalarida** turli aldovlar bilan tovarlar uchun to'lovni oldindan amalga oshirishga erishish orqali, **5,5 foizi** (3 191 tasi) **telefon qo'ng'iroqlari** orqali bank karta boshqaruvini tasdiqlovchi kodni qo'lga kiritish yo'li bilan sodir etilgan.

*Shuningdek, 3,2 foizi (1857 tasi) shaxslarni soxta kripto-birjalarga qiziqtirish va pul o'tkazishga erishish orqali, 8,1 foizi (4699 tasi) soxta tredinglik faoliyatiga qiziqtirish va ularga pul jalb qildirish shaklida, 2,4 foizi (1430 tasi) boshqalar tomonidan shaxs nomiga onlayn kredit rasmiylashtirish orqali 2,8 foizi (1604 tasi) bank zaifligi, meros va xayriya sifatida pul o'tkazdirish orqali sodir etilgan.*

Internet tarmog'ida noqonuniy ravishda **onlayn qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni** o'tkazib, fuqarolarning pul mablag'larini jalb etib kelayotgan **757 ta** internet resurslari aniqlanib, bloklandi hamda ularni sodir etgan **113 nafar** shaxslar ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortildi.

Aholini kibertahdidlardan ogohlantirish bo'yicha **“Cyber-Week”** va **“Cyber 10 day”** nomlari ostida jami **83 800 ta** kompleks targ'ibot-tashviqot tadbirlari o'tkazilib, **31 mln 700 ming** aholi qamrab olindi.

*Mahallalarda 24 135 ta, maktablarda 2 654 ta, oliy ta'lim muassasalarida 14 117 ta hamda savdo komplekslarida 20 108 ta targ'ibot tadbirlari o'tkazilgan.*

*Qamrab olingan aholining 13 mln 200 ming nafari hududlarda olib borilgan targ'ibot-tashviqot tadbirlari davomida, 18 mln 500 ming nafari esa ijtimoiy tarmoqlardagi targ'ibot kanallari orqali tegishli ma'lumotlar bilan tanishdi.*

Kiberjinoyatlardan himoyalaniish usullarini tushuntiruvchi **3 491 ta** videokontent, **1 mln 430 ta** tarqatma material va **2 501 ta** bannerlar tayyorlandi, ommaviy axborot vositalarida **27 400 marotaba** chiqishlar qilindi.

Ichki ishlar vazirligining (*“Youtube”, “Telegram”, “Instagram”*) ijtimoiy tarmoqlardagi **“cyber 102 | IIV Kiberxavfsizlik markazi”** targ'ibot kanallari orqali **400 mingdan** ortiq obunachiga **18 800 ta** tashviqot materiallari havola etildi.

## ***V. Yo'l-transport hodisalarining oldini olish tadbirlari***

**5.1.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan berilgan topshiriqlar asosida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida islohotlarning **yangi bosqichi** boshlandi.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi **Prezidenti Administratsiyasi (AF-9-son)** **farmoyishi** asosida **Respublika ishchi guruhi** tashkil etilib, sohadagi tizimli kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida kiritilgan loyihalar asosida **4 ta** qonun, Prezidentning **6 ta** qarori hamda Vazirlar Mahkamasining **21 ta** qarori qabul qilindi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ta'minlash, harakatni tashkil etish va boshqarish sohasidagi faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri rahbarligida **Yo'l harakati**

**xavfsizligini ta'minlash respublika maxsus komissiyasi**, hokimlar rahbarligida esa **hududiy maxsus komissiyalar** tuzilib, ularning **tarkibi** va **nizomi** tasdiqlandi.

Yo'l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan **“Xavfsiz va ravon yo'l”** umummilliy dasturi tasdiqlandi;

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12 iyuldagi PQ-316-son “2022–2026 yillarda amalga oshirilishi mo'ljallangan «Xavfsiz va ravon yo'l» umummilliy dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori.*

**Ekspluatatsiya-montaj** bo'linmalari tomonidan 2024 yilda **47 103 ta** yo'l belgilari o'rnatildi, **46 708 ta** eskirgan yo'l belgilari almashtirildi, **11,3 mln m<sup>2</sup>** hajmda yo'l yotiq chiziqlari chizildi, **664 ta** svetofor qurilmalari o'rnatildi, **1,2 mingta** joyda piyodalar o'tish joylari tashkil etildi.

Shuningdek, **2 571 ta** maktabda yo'l harakati qoidalarini o'rgatish sinfxonalari jihozlandi hamda **1 892 ta** maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yo'l harakati qoidalarini o'rgatish maydonchalari tashkil etildi.

Bundan tashqari, **poytaxt ko'chalarida** aholi uchun qulay va xavfsiz sharoitlarni yaratish maqsadida, **12 ta** piyodalar tomonidan boshqariladigan svetoforlar ishga tushirildi, **341 ta** piyodalar o'tish joylarida yo'l belgilari yangilandi, **340 296 m<sup>2</sup>** yo'l yotiq chiziqlari chizildi.

Yo'l harakatini to'g'ri tashkil etish maqsadida **5 ta davlat standartlari** taftishdan o'tkazilib, qayta ishlab chiqildi.

2024 yilda ta'mirlanayotgan avtomobil yo'llarida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan Avtomobil yo'llari qo'mitasiga **3 313 ta** va mahalliy hokimliklarga **1 552 ta** taqdimnoma kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yildagi **PQ-318-sonli** qaroriga asosan, IIV huzuridagi **“Xavfsiz shahar”** markazi tomonidan avtobuslar uchun tashkil etilgan alohida yo'laklarda jami **59 ta** yo'l harakati qoidabuzarliklarini aniqlovchi foto-video qayd etish qurilmalari o'rnatildi.

Toshkent shahri bo'yicha jamoat transporti ustuvorligini va to'siqsiz harakatlanishini ta'minlash maqsadida **181,2 km** uzunlikdagi **18 ta** alohida avtobus yo'laklari tashkil qilindi.

*Avtobus yo'laklarida engil avtomobillar tomonidan sodir etilgan to'xtash va to'xtab turish qoidabuzarliklarini avtomatik aniqlash imkoniyati yaratilib, 261 mingta qoidabuzarliklar aniqlandi.*

Mazkur qoidabuzarliklarni aniqlashning huquqiy asosini yaratish maqsadida 2024 yilning oktyabr oyida amaldagi yo'l harakati qoidalariga o'zgartirishlar kiritilib, **“Yo'nalishli transport vositalari uchun alohida ajratilgan tasmasi bor yo'l orqali harakatlanish”** tushunchasi kiritildi.

**5.2.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 26 apreldagi **“Ta'lim muassasalarida yo'l harakati qoidalari targ'ibotini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 212-son** qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida respublika bo'yicha maktablarda **4 723 ta** **“Yo'l harakati qoidalari yosh targ'ibotchisi”** klublari tashkil etilib, faoliyati yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, 212-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida har yili to'rt bosqichdan iborat **“Yashil chiroq”** musobaqalari o'tkazilib kelinmoqda.

**“Yashil chiroq”** musobaqasining respublika bosqichi j.y. 27-30 avgust kunlari **Bo'stonliq tumanida** joylashgan **“Semurg”** bolalar sog'lomlashtirish oromgohida o'tkazildi.

Musobaqada Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan jami **84** nafar o'quvchi **13** ta shartlar bo'yicha bellashdi.

Respublika hududida yo'lovchi tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi transport vositalari, **avtostantsiya** va **avtoturargohlar** hamda ularda yaratilgan shart-sharoitlar hududiy Transport va Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmalari tomonidan doimiy ravishda o'rganilib kelinmoqda.

Xususan, bugungi kunda respublika bo'yicha jami **13** ta avtovokzal va **157** ta avtostantsiyalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

*Amaldagi normativ hujjatlarga asosan yo'lovchilarning aynan bir vaqtdagi sig'imi 100 nafardan 500 nafargacha bo'lsa — avtovokzal, 25 nafardan 100 nafargacha bo'lsa — avtostantsiya maqomi beriladi.*

Respublika hududida shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchi tashuvchi avtobuslarni nazorat qilish bo'yicha maxsus reytd tadbirlari o'tkazildi.

Tadbirlar davomida yo'lovchi tashishga jalb qilingan **14 832** ta avtobus haydovchilari tekshirilib, ular tomonidan sodir etilgan **6 610** ta qoidabuzarliklar aniqlandi.

*Jumladan, avtobusni mast holda boshqarish bilan bog'liq 61 ta holat, texnik nosoz avtobusni boshqarish bilan bog'liq 306 ta holat, tegishli hujjatlarsiz boshqarish bilan bog'liq 504 ta holat aniqlangan.*

**5.3.** 2024 yil davomida respublikada **9 364** ta yo'l-transport hodisasi sodir etilib, ularning **19,9 foizi** (1 869 ta) inson o'limi bilan yakunlangan.

*2023 yilda jami 9 712 ta, shundan 1 945 ta (20%) o'lim bilan bog'liq yo'l-transport hodisasi sodir etilgan edi.*

– yo'l-transport hodisalarining **18,5 foizi** xalqaro ahamiyatga ega yo'llarda, **36,2 foizi** davlat ahamiyatga ega yo'llarda, **20,2 foizi** mahalliy ahamiyatga ega yo'llarda, **20,1 foizi** ichki yo'llarda sodir etilgan;

– avtoavariyalarning **47,1 foizi** haydovchilar tomonidan piyodaga yo'l bermaslik hamda **22,8 foizi** belgilangan tezlikka, **3,7 foizi** uxlab qolishi va **3,6 foizi** svetoforga amal qilmaslik oqibatida sodir bo'lgan.

2024 yilda avtoavariya oqibatida **2 203** nafar (2023 yil 12 oyida – 2 282) inson vafot etgan, **8 901** nafari (9 214 nafar) jarohatlangan.

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Ichki ishlar vazirligi**